

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING EKOLOGIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Ganiyeva S.A.

Nizomiy nomidagi TDPU tayanch doktorant

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21455171>

Annotatsiya. Talabalarning ekologik kompetentligini shakllantirish va metodlarini takomillashtirish jarayonining modeli tuzilmasi va mazmuni ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlar natijalari bo‘yicha ekologik kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari aniqlangan: qayta tayyorlash va malaka oshirish, metodik va axborot ta‘minoti, raqamli-rivojlantiruvchi muhitni yaratish va qo‘llab-quvvatlash. Ekologik kompetentlikni shakllantirish tamoyillari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: metod, model, kompetentlik, innovatsion kompetentlikning tuzilmaviy komponentlari, bo‘ljak o‘qituvchilarning ekologik kompetentligini shakllantirish prinsiplari va tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlari.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ

Ганиева С.А.

Докторант научный сотрудник ТГПУ им. Низами

Аннотация. Рассмотрены структура и содержание модели процесса формирования и методы совершенствования экологической компетентности учащихся. По результатам исследований определены следующие основные направления формирования и развития экологической компетентности: переподготовка и повышение квалификации, методическое и информационное обеспечение, создание и поддержка цифрово-развивающей среды. Определены принципы и организационно-педагогические условия формирования экологической компетентности.

Ключевые слова: метод, модель, компетентность, структурные компоненты инновационной компетентности, принципы и организационно-педагогические условия формирования экологической компетентности будущих педагогов.

IMPROVING THE METHODS OF DEVELOPING THE ENVIRONMENTAL COMPETENCE OF FUTURE TEACHERS

Ganiyeva S.A.

TDPU PhD student named after Nizami

Annotation. The structure and content of the model of the formation process and methods of improving the environmental competence of students are considered. Based on the results of the research, the following main directions of formation and development of environmental competence have been identified: retraining and advanced training, methodological and information support, creation and support of a digitally developing environment. The principles and organizational and pedagogical conditions for the formation of environmental competence are defined.

Keywords: method, model, competence, structural components of innovative competence, principles and organizational and pedagogical conditions for the formation of environmental competence of future teachers.

Jaxon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida pedagogika fanidan o'qitishning metodik-tashkiliy asoslari takomillashtirilmoqda hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida ilmiy tadqiqotlarga alohida ye'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish, ilg'or mahalliy va xorijiy yutuqlar asosida ekologik xavfsizlikni oshirishga qaratilgan kadrlar tayyorlashni talab qiladi.

Bugungi kunda dunyo ta'limi va ilmiy tadqiqot tashkilotlarida ekologiya fanidan o'qitishning metodik-tashkiliy asoslari takomillashtirilmoqda hamda ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagog kadrlar tayyorlash jarayonini samarali tashkil etishda bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirishda amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida ilmiy tadqiqotlarga alohida ye'tibor berilmoqda. Hozirgi sharoitda innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirish, ilg'or mahalliy va xorijiy yutuqlar asosida ekologik xavfsizlikni oshirishga qaratilgan kadrlar tayyorlashni talab qiladi.

Respublikamizda so'ngi yillarda ekologik ta'limning asosiy maqsadi – yuksak ekologik madaniyatga ega, uzluksiz o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan, nafaqat tez o'zgarib turadigan ijtimoiy-ekologik sharoitlarga moslasha oladigan, balki uning oqibatlarini ham aniq his yeta oladigan ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishdir. Innovatsion ta'lim muhitida ekologik kompetensiyani rivojlantirish bilan uyg'unlikda pedagogikani o'qitishda zamonaviy interaktiv dasturiy vositalarning vizual va virtual imkoniyatlariga asoslangan ta'lim va tarbiya tizimini takomillashtirish va yuqori darajada dars mashg'ulotlarida tatbiq etish, elektron ta'lim resurslari yordamida ta'lim olishning meyoriy asoslari yaratilmoqda. Ekologik kompetentlikni shakllantirish asosida yosh avlodni, o'quvchilarni va butun aholini ekologik tarbiyalashga erishiladi. Majburiy ekologik ta'lim va yosh avlodni, o'quvchilarni va butun aholini ekologik tarbiyalash ta'lim muassasalarida ekologik ta'lim tizimini loyihalashga yo'naltiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son Qarori [4], 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi [6] Qarori, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775 son Qarori [5], 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5847-son Farmoni [3], Vazir Mahkamasining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi 434-sonli Qarori, 2019 yil 30 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-5863-son Farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son

Farmoni [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4623-sonli Qarori [7], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrda “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-4884-sonli Qarori [8], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5349-sonli Farmoni [9], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5863-son Farmoni [10], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida Ekologik ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi 434-sonli Qarori [11] hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda pedagogik ta’lim sohasini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim ko‘nikmalariga ega, professional pedagog kadrlar yetkazib berish maqsadida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarning belgilanganligini e‘tirof etish joiz:

- Tarbiya va o‘qitish usullari ta’lim jarayonida pedagogik ta’lim sohasi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, innovatsion o‘quv-meyoriy va ta’lim resurslarini yaratish hamda amaliyotga joriy etish;
- Oliy pedagogik ta’limda mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish; yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmada ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagog kadrlarni shakllantirish jarayonlari samaradorligini oshirish.


Ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning uchrashuvi qayerda boshlansa, o‘sha yerdan ta’lim muhiti boshlanadi, qaysiki ular birgalikdagi faoliyatning manbai sifatida alohida universitetlarda, ta’lim dasturlari, ta’lim subyektlari orasida o‘quv jarayoni yaratiladi. Bunday muhit ta’limni tashkil etish jarayonida subyekt (o‘qituvchi va talaba) larning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi[12].

Ta’lim islohotlarining hozirgi zamon bosqichida jamiyatda yuz berayotgan yangilanishlarning tezkorligi, ta’lim muassasalariga qo‘yilayotgan yanada yuqori talablarga tezroq moslashish bilan bog‘liq dolzarb vazifalar ilgari surilmoqda. Bunday sharoitlarda ta’lim muassasasini rivojlantirish va zamon talablari darajasida faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan tadbirlar salmog‘i uzluksiz ortib boradi[13].

Ekologik kompetentlikni shakllantirishni quyidagicha ko‘rib o‘taylik:

- Ekologik madaniyat
- ekologik ta’limning ko‘lami
- shaxsning ekologik yo‘nalishi
- tabiiy yo‘naltirilgan faoliyat (1-rasm)

Ekologik kompetensiya tarkibida amalda-faol komponent quyidagilarni nazarda tutadi: ekologik muammolarni aniqlash, hal qilish va oldini olishda, atrof-muhit holatini yaxshilashda ekologik bilimlarni amalda qo‘llash qobiliyati; ekologik faoliyatning amaliy tajribasi mavjudligi.



1-rasm. Ekologik kompetentlikni shakllantirish

Biz ekologik kompetensiyani nazariy bilimlarga, ekologiya sohasidagi amaliy ko'nikmalarga va axloqiy tanlov sharoitida bo'lajak o'qituvchining ekologik jihatdan adekvat xulq-atvoriga tayyorligiga asoslangan shaxsning integratsion sifati, deb hisoblaymiz.

Bo'lajak o'qituvchining ekologik kompetensiyasi tarkibi quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- kognitiv;
- qiymat-motivatsion;
- professional va faol.

Bo'lajak o'qituvchining ekologik kompetensiyasining ta'rifidan kelib chiqadiki, ular kognitiv komponentga qo'shimcha ravishda motivatsion-qiymatli komponentni va kasbiy xatti-harakatlar shakllarini o'z ichiga oladi. Bo'lajak o'qituvchilarning an'anaviy kasbiy tayyorgarligi doirasida ekologik kompetensiyani shakllantirish qiyin. Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetensiyasini maqsadli rivojlantirish zarurati va bu jarayonni an'anaviy ta'lim sharoitida amalga oshirishning mumkin emasligi o'rtasida yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar pedagogik tadqiqotlarni amalga oshirishga to'rtki bo'ldi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda o'qituvchining o'rganish va o'zlashtirish jarayonida ekologik kompetensiyani shakllantirish, rivojlantirish jarayoni butun shaxs va uning barcha tarkibiy qismlarining rivojlanishiga hissa qo'shishi kerak (1-jadval).

1-jadval.

O'rganish va o'zlashtirish jarayonida talabalarda ekologik kompetensiyani shakllantirish tizimi modeli

Maqsad: Bo'lajak o'qituvchilarda ekologik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish				
Auditoriya		mashg'ulotlarining		Turlari
Ma'ruza	Amaliy mashg'ulotlar		Laboratoriya ishi	
Mustaqil ish				
Berilgan mavzu bo'yicha asl manbani o'rganish va tahlil qilish	Tabiat muhofazasi bo'yicha muammoli loyiha ishlab chiqish	Kichik guruhlarda ishlash va mustaqil taqdimot tayyorlash	Ekologik masalaning yechimi bo'yicha ssenariy tayyorlash	Topshirilgan mavzu bo'yicha doklad tayyorlash

Ta'lim texnologiyalari			
Modulli ta'lim texnologiyasi	Muammoli ta'lim texnologiyasi	Faol ta'lim usullari	Loyihaviy o'qitish Usullari
Fanni o'zlashtirishni nazorat qilish shakllari			
Amaliy mashg'ulot natijalari asosida	Yozma ish nazorati asosida		Test sinovi asosida
Shakllangan ekologik kompetensiya			

Ekologik kompetenllikni shakllantirishda metodik ta'minotni kasbiy faoliyatga yo'naltirib tayyorlash va undan foydalanib o'qitish jarayonini tashkil qilish talabalarda:

- atrof-dagi ekologik muammolarni o'rganishga qiziqishini oshiradi;
- ko'nikmalarini shakllantiradi;
- kasbiy kompetentligini oshirishga imkon beradi;
- kasbiy motivatsiyani yuzaga chiqaradi;
- Men pedagog bo'la olaman ruhiyatini shakllantiradi;
- zarur bilimlarni o'zlashtirib borishni talab etadi;
- o'z faoliyatini baholay olishga va shaxsiy qarorlar qabul qilishga o'rgatadi.


Ekologik ta'limning 5 ta samarali strategiyasi haqida fikrlashishga to'g'ri keladi:

1. Talabalarda ekologik mas'uliyat hissini uyg'otish.
2. Atrof-muhitni muhofaza qilishda tanqidiy fikrlashni va muammolarni hal qilishni rivojlantirish.
3. Ilg'or ta'lim usullarini qabul qilish.
4. Mahalliy tashkilotlar va mahallani o'zi bilan hamkorlik qilish.
5. Ekologik ta'lim sayyoramiz kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ekologik kompetentlilikni shakllantirish negizida ta'lim mazmuni quyidagi mezonlar asosida shakllantiriladi:


- ta'lim mazmunining ekologik nuqtai nazardan zamonaviy fan yutuqlari darajasiga mosligi;
- Ekologik muammolarni hal qilishning qiyinlik darajasini ta'lim oluvchilarning muammolarni anglab yetishi va mahalliy doiradagi muammolarni yechish imkoniyatiga ega ekanligi;
- Ekologik vaziyatlarni tahlil qilish va ularning yechimi haqida xorij tajribasidan foydalangan holda bashorat qilish ko'nikmasiga ega ekanligi;
- xalqaro tajribalarning inobatga olinganligi;
- Mahalliy, mintaqaviy va global miqiyosdagi ekologik muammolarni ajrata olishi, sun'iy intellekt orqali ekologik muammolarni paydo bo'lishi va bartaraf etilishi haqida yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi.

Ilmiy tadqiqot ishlarini o'rganish va tahlil qilish natijasida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatga tayyorlashning konseptual metodik tizimiga asoslangan tashkiliy-tuzilmaviy modeli ishlab chiqildi (2.1.-rasm). Model oliy ta'lim muassasalari bo'lajak o'qituvchilarni ekologik kompetentligini shakllantirish yordamida kasbiy faoliyatga tayyorlashning maqsadini o'z ichiga olgan. Qadriyatlar va ishonchni mustahkamlash orqali ekologik vaziyatlarga vatanparvarlik nuqtai nazaridan munosabat bildirishni taqozo etadi.



2.1.-rasm. Ekologiyani o'rganish o'lchovlari.

2.1-jadval. Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik kompetentligini rivojlantirish modeli




Umummadaniy kompetentsiya: ekologik ongni rivojlantirish, tabiatga mos xatti-harakatlarni tizimlashtirish, ekologik kompetensiyaning bazaviy asoslarini o'rnatish

Ekologik holat bo'yicha interviyu tayyorlash;
Keys texnologiyasi orqali ekologik holatni kompetensiyaviy yondashuv orqali bashorat qilish

O'zi yashab turgan hududni qadriyatlar asosida muhofaza qilish-mahalliy komponent.

Qomusiy olimlarning O'rta Osiyo tabiati haqidagi fikrlari - mintaqaviy komponent

Bo'lajak o'qituvchining pedagogik faoliyat dasturi-universitet komponenti



Natija: Ekologik kompetentli bo'lajak o'qituvchisi

Bo'lajak o'qituvchining ekologik kompetentsiyasi atrof-muhit, kommunikativ, psixologik va pedagogik jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, u orqali bo'lajak o'qituvchi ekologik bilim, ko'nikma va tajribaga ega bo'ladi. Bundan tashqari, u atrof-muhitni oqilona boshqarishni o'rganadi va asosiy ekologik kompetensiyalarni, jumladan: ekologik bilimlarni tizimlashtirish, mahalliy, mintaqaviy va global darajadagi muammolar va ularni hal qilish yo'llarini izlab topish; ekologik bilimlarni

amaliyotda qo'llash olish va ekologik qadriyatlar orqali ijobiy natijalarga erishadi. Bu orqali tabiat bilan o'zaro munosabat kompetensiyalari shakllanishiga erishiladi (2.1.-jadval).

Bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi mezonlari.

Kompetentlik mezonlari	Ko'rsatkichlar
Motivatsion (ijobiy moyillikni shakllanishi)	Bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligi rivojlantirish zaruriyatini anglash; O'quv jarayonida shakllantiriladigan metodik kompetentligi namoyon qilishga tayyorligi; O'z kasbi sohasidagi metodik kompetensiyalarni mustaqil rivojlantirishga ehtiyoj;
Kognitiv (nazariy bilimlarning mustahkamlinishi)	bilimlarni egallash va ulardan foydalanib aqliy operatsiyalarni bajara olishi; pedagogik faoliyatdagi metodik ta'minot yaratish kompetentligi ahamiyatini anglay olish, o'z fani bo'yicha dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun kompetentligi, nazariy bilimlarga ega ekanligi; amaliy faoliyatda mutaxassislik faniga oid bilimlardan foydalana olishi va metodik kompetentligi;
Refleksiv (o'z-o'zini tahlil qilish asosida baholash)	Bo'lajak o'qituvchilarning metodik ta'minot yaratish kompetentligi, fikrlash, baholash va o'quv jarayoni natijalari va yutuqlarini bashorat qilish qobiliyati; metodik shaxsiy va kasbiy faoliyatga doir harakatlar bo'yicha o'zini-o'zi baholash, tahlil qilish ko'nikmasiga egaligi.
Bilish (intuitsiya va ijod, bilishdagi roli.)	Bo'lajak o'qituvchilarning metodik ta'minot yaratishda: isbotlash va rad etish; axborot, ma'lumot o'zlashtira olish; fanlar integratsiyasining ilmiy bilish darajasi o'sishidagi rolini farqlay olishi

Talabalar bilimi, ularning o'z kasbiy faoliyatiga moyilligi darajasi, amaliy muammolarning mustaqil holda ijodiy yechimini, o'rganilayotgan manba (fan, mavzu, hodisa, jarayon, shaxs va shu kabilar) ning mohiyatini ilmiy anglab, maqbul ravishda talabalarning intellektual mulkiga aylantirish yodamida aniqlandi.

Aytish mumkinki, kasbiy-innovatsion faoliyatni samaradorligiga ko'plab omillar, ya'ni fan bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirish;

mustaqil faoliyat davomida talaba qaysi muammolarni o'rganshi kerakligi aniq ko'rsatilishi;

tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati;

talaba tomonidan muammoni qaysi metodlar bilan o'rganishga oid tavsiyalar;

baholash turi va mezonlari aniq ko'rsatilishi zarur.

O'ylaymizki, bu bosqichli tamoyillar talabalarni kasbiy-innovatsion faoliyatga tayyorlashda ilmiy-uslubiy jihatdan imkoniyatlar yaratadi. Oliy ta'lim muassasalarida ekologik kompetensiyani shakllantirish bo'yicha tayanch kompetensiyalarning shakllanganligining qiyosiy tahliliga ko'ra, test topshiriqlarining bajarish natijalari asosida past darajadagi o'zlashtiruvchilar juda ko'pchilikni

tashkil etishi, bu kompetensiyalarni rivojlantirish va kasbiy sohaviy kompetensiyalarini integrativ yondashuv asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi.

XULOSALAR

1. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning hozirgi holati, uning samaradorligini oshirish shart-sharoitlari tahlil qilinganda zamon talabiga javob beradigan metodikaning yetarli emasligi aniqlandi va talabalarning metodik ta'minot yaratish kompetentligini rivojlantirish zarurligini ko'rsatdi.
2. Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirishda ta'limdan foydalanishning uslubiy-didaktik tizimli, kompetensiyaviy va metodologik yondashuvlar asosida mazmunan rivojlantirilgan holda takomillashtirildi.
3. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish vositalari (ta'lim metodlari, didaktik vositalar) va yo'naltiruvchi, faollashtiruvchi, shuningdek tahlil qilish bosqichlarini amaliy mashg'ulotlarda qo'llash orqali bo'lajak o'qituvchilarda ekologik kompetentlikni uzviyligini amalga oshirildi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarni turli vaziyatlarda ekologik muammolarni yechishda va bashorat qilishda hamda ularning ijodiy qobiliyatlari bilan kreativ fikrlash faoliyatini rivojlanishiga yordam beradi.
4. Ta'lim jarayonidagi meyoriy hujjatlar, talabalarni o'zlashtirish darajasi va intellektual salohiyatini inobatga olib, takomillashtirilgan metodik ta'minot pedagogika fanini o'qitish jarayonida foydalanish, talabalarda istiqbolli motivatsiyani oshirishga, kasbiy bilimlarni egallashga qiziqishni ortishiga, kasbiy muvaffaqiyat, yuksalish, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, vaqtni tejashga hamda талабаларни ўз касбий фоліятини лойиҳалаштира олишига олиб келди.
5. Pedagogika fanidan o'qitish samaradorligini aniqlovchi kompetentlik (motivatsion, kognitiv, refleksiv, bilish) mezonlari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy qilindi, natijasi tajriba-sinov ishlarida aniqlandi va talabalarning o'zlashtirish darajasi 1,14 foizga oshishiga erishildi.
6. Interfaol o'qitish metodlari imkoniyatlaridan foydalanib, kasbga yo'naltirib o'qitishning takomillashtirilgan metodik ta'minoti asosida bo'lajak o'qituvchilarning ekologik jihatdan kasbiy kompetent mutaxassis sifatida tayyorlashning modeli ishlab chiqildi.
7. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida pedagogika fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun yaratilgan ta'lim resursi va metodik qo'llanmalardan boshqa fanlarni o'qitishda foydalanildi.

Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini shakllantirish metodikasini yanada takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilishni lozim, deb hisoblaymiz:

1. Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish maqsadida talaba yoshlarni ijodiy mustaqillikka, nazariy va amaliy mashg'ulotlarda muammoli vaziyatli topshiriqlar yechimini topishga bosqichma-bosqich tizimli o'rgatib borish zarur.
2. Bo'lajak o'qituvchilarning ekologik kompetentligini rivojlantirish samaradorligini, talabalarni kasbiy motivatsiyasini oshirish maqsadida sanoatlashgan hududlarda va ekologik muammoli hududlarga amaliyotga olib chiqib, muammoli vaziyatlarni yechish yo'llarini topishga erishish.
3. Ekologik kompetentlikni shakllantirish jarayoniga biz tomonimizdan taklif etilayotgan zamonaviy ta'lim metodlarini qo'llash nafaqat, ta'limiy hamkorlikka asoslanuvchi munosabatlarni tashkil etishga, talabalarda ekologik qadriyatlar asosida individual yondashishni shakllantirish; shuningdek ekohududlarda “Yashil sayohat” dasturlarini ishlab chiqish, shahar va qishloqlarda tabiat muzeylarini tashkil qilish orqali aholi qatlamida ekologik kompetentlikni shakllantirishga erishishni ta'minlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 йил 30 октябрдаги "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф-муҳитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги ПФ-5863-сон Фармони.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PF-5847-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-3775-sonli Qarori.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-3151-sonli Qarori.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PQ-4623-sonli Qarori (<https://lex.uz/docs/-4749364>).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-noyabrdagi “Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PQ-4884-sonli Qarori (<https://lex.uz/docs/-5085887>).
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi PF-5349-sonli —Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida||gi Farmoni (<https://lex.uz/docs/-3564647>)
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 30-oktabrdagi “2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi PF-5863-son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida” gi 434-sonli Qarori.
12. . Shirinov F.Sh. Bo'lajak informatika o'qituvchilarining elektron metodik taminot yaratish kompetentligini rivojlantirish metodikasi. – T., 2023 yil.
13. Begimqulov U.Sh. Oliy pedagogik ta'lim tizimiga zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan. doktori dis. – Toshkent: TDPU, 2007. – 250 b.